TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Isoхонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гафорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdhamovna	



AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI

Baymuratova Guldjahan Xamdamovna

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Email: baymuratovaguljahon0@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda bu borada samaradorlikni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Bandlikning tarmoq va hududiy tarkibida mehnat qilayotgan ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonidagi mavjud muammolar tizimlashtirilgan. Ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchrayotgan muammolarni bartaraf etishga doir ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, mehnat bozori, inson resurslarini boshqarish, gender tengligi, iqtisodiy taraqqiyot, yetakchilik kompetensiyasi, liderlik salohiyati, liderlik ko'nikmalari.

Abstract. The article examines the factors influencing the development of women's leadership competencies and the theoretical and methodological foundations for creating conditions for ensuring effectiveness in this regard. Systematized existing problems in the process of developing leadership competencies of women working in the sectoral and territorial structure of employment. Scientific proposals and practical recommendations for overcoming problems in the development of women's leadership competencies are formulated.

Key words: social activism, labor market, human resource management, gender equality, economic development, leadership competencies, leadership potential, leadership skills.

Аннотация. В статье рассмотрены факторы, влияющие на развитие женских лидерских компетенций, и теоретико-методические основы создания условий для обеспечения эффективности в этом отношении. Систематизированы существующие проблемы в процессе развития лидерских компетенций женщин, работающих в отраслевой и территориальной структуре занятости. Сформулированы научные предложения и практические рекомендации по преодолению проблем в процессе развития женских лидерских компетенций.

Ключевые слова: социальная активность, рынок труда, Управление человеческими ресурсами, гендерное равенство, экономическое развитие, лидерские компетенции, лидерский потенциал, лидерские навыки.

KIRISH

Ayol va uning qadr-qimmati, sha'ni hamda iftixorini yuksaltirish har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim asosi hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitlarining keskin tus olishi, globallashuv jarayonlaridagi yot g'oyalardan yoshlar ma'naviyati va ongini muhofaza etish, ijtimoiy faollik ta'sirida yuzaga keladigan barqaror muhitning tizimli rivojlanishi bilan bog'liq samaradorlikka erishish jarayonlarini ayollarning yetakchilgisiz ta'minlash murakkab hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda so'nggi yillarda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lig'ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash, tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama rag'batlantirish, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag'larini belgilangan tartibda joylashtirish kabi qator chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi [1].

O'z navbatida, mamlakatimizda ayollarga berilayotgan keng ko'lamli imtiyozlar ularning mehnatini qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etish, faoliyat jarayonini kengaytirish hamda jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash uchun tegishli asosni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu borada belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlash xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallash, kompetensiyalarini rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlash hamda faoliyat jarayonini tizimlashtirish orqali milliy va mintaqaviy darajadagi muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini o'rganish zamonaviy iqtisodiyotdagi yangi ilmiy izlanishlar orasida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, bu boradagi



tadqiqotlar ayollarning iqtisodiy hamda ijtimoiy faolligini oshirish, fan va ta'lim sohasidagi ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish, ularning mehnat faoliyatini yengillashtirish orqali jamiyatdagi mavqeyini kengaytirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlar S. Samineni va B. K. Reddy tadqiqotlarida biznes sohasida yetakchi salohiyatga ega ayollarning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish mintaqaviy va milliy darajada biznesning o'sish nuqtalari shakllanishining asosiy omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari ayollarning yoshi va tajribasi ularning yetakchilik qobiliyatlari bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi [2]. L. N. Pankovanning ilmiy izlanishlarida zamonaviy dunyoda ayollar va erkaklarning teng huquqlarga ega bo'lishida gender siyosati muhim o'rin tutishi, yetakchilik fazilatlarini shakllantirish, xalqaro dasturlar orqali ayollar martabasini oshirish, innovatsion o'quv dasturlarini rag'batlantirish zarurligi ta'kidlanadi [3].

A. I. Mingazova, Ya. F. Xayrullina va A. D. Xayrullinalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda so'nggi 20 yil ichida jamoatchilik ongida gender tengligi tushunchasi hamda uning amaliy ifodasi yirik kompaniyalarda menejerlar faoliyatini rivojlantirishning odatiy sxemasiga aylangani qayd etiladi. Ishlab chiqarish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ayollarning yetakchilik roli kompaniyalar biznes bo'linmalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [4].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari U. Zaynutdinova va B. Tursunovlarning ilmiy tadqiqotlarida ayollarning jamiyatdagi yetakchilik fazilatlarini namoyon etishda ularning ijtimoiy faolligini oshirish zarurligi e'tirof etilgan. Shuningdek, ayollar ijtimoiy faolligini kengaytirilgan ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish tizimiga qo'shish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Bu jarayonlar natijasida oila institutining barqaror ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash imkoniyati oshadi [5].

X. T. Kamilova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashda milliy va hududiy darajada loyiha asosidagi liderlik dasturlarini shakllantirish, modulli treninglar o'tkazish orqali ayollarning liderlik salohiyatini rivojlantirish, ularning tashabbuskorligini oshirish va ijtimoiy kapitalini mustahkamlash yo'lidagi chora-tadbirlar o'rganilgan [6].

M. To'rayeva tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda lider ayollarning o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatda ularning mavqeyini kengaytirish orqali gender tengligini institutsional darajada ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik vosita va mexanizmlarni shakllantirish zarurligi ta'kidlangan [7].

Sh. Z. Mansurova mamlakatda gender tengligi sohasidagi so'nggi islohotlarni tahlil qilib, xalqaro standartlar asosida yangi strategik yo'nalishlarni belgilash, ayollarning yetakchiligini ta'minlashga yo'naltirilgan institutsional mexanizmlarni yanada mustahkamlash hamda ta'lim tizimini rivojlantirish orqali sezilarli natijalarga erishish mumkinligini qayd etgan [8].

M. Fayziyeva va D. Ganiyevalarning tadqiqotlarida ayol rahbarlarning inson resurslarini boshqarishga ta'siri baholangan bo'lib, ayollarning yetakchilik fazilatlarini bilan inson resurslarini boshqarish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Tadqiqotda tavsiflovchi statistika, Kronbax alfa va Spearman korrelyatsiyasi usullaridan foydalanilgan holda ayollarning mas'uliyat, o'ziga ishonch, strategik fikrlash va hamdardlik kabi inson resurslarini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha xulosalar umumlashtirilgan [9].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar jamiyatda ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish shart-sharoitlari va omillariga nisbatan kompleks yondashuvni aks ettiradi. Biroq iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarida mehnat faoliyatining xarakteri hamda kompetensiyalarni shakllantirish va toifalash jarayonlariga yetarli e'tibor qaratilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, shuningdek, statistik tahlil kabi ilmiy metodlardan keng foydalanilgan. Tadqiqot natijasida shakllantirilgan ilmiy xulosalar hamda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar mazkur metodlarning tadqiqot jarayonida atroflicha qo'llanilganligini izohlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyatda inson faoliyatini samarali tashkil etish tizimini shakllantirish iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash algoritmini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, inson faoliyatida yetakchilik fazilatlariga ega bo'lish ijtimoiy munosabatlar tizimida tegishli mavqeyini mustahkamlash imkonini beradi. Biroq insonning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini uning ma'lum makondagi ichki va tashqi omillar bilan bog'liq murakkab jarayonlar ta'sirida shakllanadi. Shu bois inson faoliyati bilan bog'liq yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish uning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida, qat'iyatlilik va mustaqillik fazilatlarini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fazilatlarining namoyon bo'lishi ayollarda o'ziga xos xususiyat kasb etib, ularning hayot tarzi va mehnat faoliyatidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.




Ayollarda yetakchilik kompetensiyalariga xos fazilatlar ularning oila va mehnat faoliyatidagi muvaffaqiyatida yaqqol namoyon bo'lganligi sababli, bu tushunchani bevosita gender tengligi bilan bog'lash maqsadga muvofiq emas. Gender tengligi, avvalo, erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar va ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Yetakchilik kompetensiyalarini shakllantirishda esa ayollarga nisbatan alohida yondashuv zarur: ularning hayot strategiyasi va ijtimoiy hayot tarziga xos omillar — nikoh, farzand tug'ilishi, tarbiya jarayonlari va oilaviy mas'uliyatlar hisobga olinishi lozim. Bu yondashuv ayollarning kasbiy faoliyatini tanlash va o'zgartirish, shuningdek, biznes faoliyatini oilaviy omillar bilan uyg'unlashtirishda zarur muvozanatni ta'minlashga yordam beradi.

Fikrimizcha, ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimi quyidagi asosga ega (1-jadval).

1-jadval. Ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimi¹

№	Kompetensiyani rivojlantirish tizimi elementlari	Ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimining xususiyatlari
1.	Kasbiy va oilaviy hayot uyg'unlini ta'minlashni strategik jihatdan muvofiqlashtirish	Ushbu bosqichda ayollar o'zlarining fiziologik jihatdan energiyasini tiklash uchun etarli darajada vaqt sarfini oraliq intervalini belgilashga harakat qilishi lozim. Oraliq intervalda vaqt sarfini belgilash jarayoni kompetentlik ta'sir doirasini oshirishning ijtimoiy-psixologik omillariga bog'liq bo'lib, bunda ayollarning oila va ish jarayonida vaqt sarfi bilan bog'liq maqbul nisbatni ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi.
2.	Kasbiy faoliyatida mehnat natijadorligining sinergik asosini shakllantirish	Ushbu bosqichda ayollar kasbiy faoliyatida mehnat natijadorligining sinergik asosini shakllantirish algoritmi yaratiladi. Tegishli algoritmnini shakllantirishda mehnat faoliyatidagi natijasizlik sababini tushunish, muammoning asl manbasini aniqlash, kamchiliklar ustida ishlash maqsad natijasini oldindan tasavvur qilishga imkon beradi.
3.	Kompetensiyalarni rivojlantirishning strategik maqsad va vositalarini belgilash	Kompetensiyalarni rivojlantirishning strategik maqsadi (daromadlar darajasini oshirish, karyera, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini kengaytirish) doirasida tegishli vositalar (o'qish, kasb o'rganish, biznes va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish)ni ma'qul va samarali natijadorlikka ega bo'lgan jihatlarni ajratib olish, kattaroqlarini kichikroqlarga ajratib, ularni asta-sekin bajaring. Strategik maqsad doirasida qo'shimcha vazifalarni belgilash.
4.	Yetakchilik kompetensiyalarini professional o'sishga yo'naltirish	Karera ko'tarilishni mustaqil boshqarish jarayinini shakllantirish. Boshqaruv jarayinida shaxslararo munosabatlarga katta e'tibor berish. Boshqaruv lavozimlari bilan cheklanib qolmasdan, odamlarga ta'sir o'tkazish va ular harakatlarini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan kerakli bilim va malakalarni o'zlashtirish.

Ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimida tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ularning malakasi va kasbiy faoliyati bilan bog'liq jarayonlar ta'sirida bosqichma-bosqich takomillashib boradi. Erkaklarning mehnat faoliyatida jismoniy va ruhiy bosimlarga nisbatan yuqori moslashuvchanlik qobiliyatiga ega ekanligi, shuningdek, qat'iy qarorlar qabul qilishdagi ustunligi natijasida ishsizlik tarkibida ayollar ulushi nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda. Xususan, mamlakatimizda ayollar va erkaklar orasidagi ishsizlik darajasi o'rtasida 1,5–2 baravar farq mavjudligi bu fikrni tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. 2018-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida ayollar va erkaklar orasidagi ishsizlik darajasi^[10]

¹ Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan



2018–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida ayollar va erkaklar orasidagi ishsizlik darajasi o'rtasidagi tafovutning dinamikasi gender tengligini ta'minlash yo'lida muhim o'zgarishlarni ko'rsatadi. 2024-yilda bu tafovut 8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda eng past daraja — 3,9 foiz qayd etilgan. Qolgan yillarda bu ko'rsatkich o'rtacha 6 foizdan yuqori bo'lib, ayollar bandligini oshirish yo'nalishida olib borilayotgan tizimli islohotlar bosqichma-bosqich natija berayotganini anglatadi. Ayollar bandligini ta'minlash jarayonida ularning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga doir tashabbuslarni kengaytirish orqali mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, ayollarning rasmiy bandlikdan chetlashishi va mehnat faoliyatida xato yoki tavakkal qilishga nisbatan kamroq moyilligi ularning amaliy tajriba orttirish hamda sinov jarayonlaridan o'tish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu maqsadda ayollar uchun malaka oshirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va mentorlik dasturlarini kengaytirish istiqbollari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tahlillar ayollarning mehnat faoliyatiga moslashuvchan shaklda integratsiyalashuvi jarayonida ularning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratilayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, korxona va tashkilotlarda ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo'yicha maslahat va ko'mak tizimlarini kuchaytirish, shuningdek, ijtimoiy ongda ayollarning yetakchilik salohiyatini e'tirof etish madaniyatini keng targ'ib etish kelgusida gender muvozanatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar ayollarning mehnat faoliyatida faol ishtirokini rag'batlantirib, ularni iqtisodiy va ijtimoiy hayotda samarali yetakchilar sifatida shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Yetakchilik fazilatlariga ega bo'lgan ayollar ko'pincha biznes yoki siyosat sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun tavakkal qilishdan cho'chishadi. Bu holat faqat yosh ayollar orasida emas, balki katta yoshli ayollarda ham kuzatiladi. Sababi — ularning o'ziga bo'lgan ishonchi pastligi, iqtidorini yetarlicha baholamasligi hamda professional ambitsiyalarning yetishmasligidir.

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologik tizimlarning ustuvorligi, sun'iy intellekt faoliyatining keng rivojlanishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida robot texnologiyalarining joriy etilishi kabi jarayonlar, ayniqsa tadbirkorlik hamda boshqaruvning turli bosqichlarida, ayollar uchun muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiruvchi yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida ularning mehnat qilish qobiliyatidan ko'ra, gender tengligi hal qiluvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mehnat bozorida ayollar bandligini ta'minlashda malaka va iste'dodni rivojlantirish hamda ijodiy salohiyatni oshirish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mehnat bozorida ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim va fan sohasida vertikal hamda gorizontalsegregatsiya tizimiga asosan iste'dodni samarali taqsimlash imkonini yaratadi.

Mamlakatimizda, boshqa ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi, ayollar ko'proq gumanitar fanlarga moyil bo'lganligi sababli, muhandislik kasblarida gender stereotiplarining keng tarqalishi iqtisodiy rivojlanish jarayoniga ma'lum darajada tahdid soladi. Ayniqsa, IT sohasida ayollar ko'plab to'siqlarga duch kelishmoqda. Natijada, bu holat ularning iste'dod va salohiyatini to'liq namoyon etish imkoniyatini cheklaydi hamda tashkiliy rivojlanish asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari va mavjud to'siqlarni tahlil qilish natijasida, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- ayollarning ilmiy-innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat dasturlarini shakllantirish orqali milliy innovatsion tizimni xalqaro miqyosda integratsiyalash jarayonlarini kengaytirish;
- mikro va makro darajada ayollarning biznes, menejment hamda jamoaviy ish tajribasini o'rganish asosida muvaffaqiyatli amaliyotlarini rag'batlantiruvchi kasbiy rivojlanish dasturlarini yaratish;
- korxonalarda ayollarning lavozimi va kasbiy malakasini oshirish jarayonini tizimli tarzda qo'llab-quvvatlashga asoslangan gender-neytral boshqaruv tizimini shakllantirish;
- milliy darajada ayollarning kasbiy tayyorgarligi va malakaviy darajasini monitoring qilish elektron platformasini yaratish orqali hududiy darajada ayollarning yetakchilik kompetensiyalarini muvofiqlashtirish samaradorligini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5320582>
2. Samineni S, Reddy B.K. Leadership Competencies Analysis - A Study with Reference to Women Managers in Software Industry. IOSR Journal of Business and Management (IOSR-JBM) e-ISSN: 2278-487X, p-ISSN: 2319-7668. Volume 14, Issue 4 (Nov. - Dec. 2013), PP 77-81 www.iosrjournals.org



3. Панкова Л.Н. Женское лидерство, как тренд развития глобальной экономики // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2018. Том 8. № 10А. С. 183-188.
4. Мингазова А.И., Хайруллина Я.Ф., Хайруллина А.Д. Гендер особенности лидерского поведения // Современные наукоемкие технологии. 2014. № 7-1. С. 65-66
5. Зайнутдинова, У., & Турсунов, Б. (2024). Ўзбекистонда ижтимоий ислохотлар стратегияси ва уни амалга ошириш йўналишлари. Modern Science and Research, 3(5). Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/32712>
6. Kamilova X.T. Ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashda loyiha asosli liderlik dasturlarining samaradorligi // Science and Education. 2025. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ayollarni-rahbarlik-lavozimlariga-tayyorlashda-loyiha-asosli-liderlik-dasturlarining-samaradorligi>.
7. To'rayeva, M. (2023). Leading women are the backbone and pillar of the development of society. Modern Science and Research, 2(10), 289–292. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24347>
8. Mansurova Sh.Z. (2025). Xalqaro standartlar asosida O'zbekistonda gender tengligini rivojlantirish strategiyasi va institutsional islohotlar bo'yicha takliflar. Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 47(4), 153-158. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/22667>
9. Файзиева М., & Ганиева Д. (2021). Оценка влияния женщин-лидеров с интеллектуальным потенциалом в управлении человеческими ресурсами. Общество и инновации, 2(2/S), 76–90. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss2/S-pp76-90>
10. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy axborot sayti ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
